

Muzeylar moziyga muhir

Tarixiy haqiqatni qaror toptirish, Vatanimiz ozodligi va erkinligi yo'lida qurbon bo'lgan xalqimizning suyukli farzandlari nomini tiklash, ularning hayoti va faoliyatini o'rganish, tadqiq va targ'ib etish maqsadida mamlakatimizning birinchi Prezidenti tashabbusi bilan 2000-yil 12-mayda poytaxtimizning Yunusobod tumanida "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmui ochildi. Bu ko'p kutilgan tarixiy voqea edi. Shundan buyon har yili 31-avgust — Qatag'on qurbonlarini yod etish kuni "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmui va "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyi poytaxtimizning eng gavjum ziyoratgohlaridan biriga aylanadi. "Gidromelioratsiya" fakulteti "Meliorativ gidrologiyasi" yo'nalishi 1-bosqich 109 - guruh murabbiyi va talaba-yoshlar bilan muzeyga sayohatni amalga oshirdi. Jamiyatni ma'naviy yuksaltirishda, milliy g'oyani mustahkamlashda, yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda muzeylarning alohida o'rni bor. Muzeylarni bejiz tarix, ma'naviyat va san'at xazinasini deb ta'riflashmaydi. Ularda turli-tuman noyob va qimmatbaho ashyolar jamlanganki, xalqning o'tmishi aks etgan bu ekspozitsiyalar bizni ajdodlar hayoti, kurashi va boy merosi bilan tanishtiradi. Muzeylarning ijtimoiy-siyosiy hayotimizda bajaradigan vazifalaridan biri ta'lim va tarbiya o'chog'i ekanligidir.



TIQXMMI matbuot xizmati